



KOMPONENT VA SINTAKSEMALARGA AJRATIB TAHLIL QILISH METODLARI. YADRO BO‘LMAGAN TOBE [ŃD] KOMPONENT O‘RNIDA OBYEKT SINTAKSEMA

Jo‘rayeva Dilorom Raxmatillo qizi

Samarqand davlat chet tillar instituti tayanch doktoranti

+998932826993

d11001732@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada gapni komponent va sintaksemalarga ajratib tahlil qilish metodi haqida so‘z boradi. Sintaksem tahlilda yadro bo‘lmagan tobe [ŃD] komponent o‘rnida obyekt sintaksemalar haqida fikr yuritiladi. An‘anaviy sintaktik tahlilda gapni bosh va ikkinchi darajali bo‘laklarga ajratib tahlil qilamiz. Gapning ichki qurilmasini sintaksemalarga ya‘ni eng kichik ma‘noli birliklarga ajratib tahlil qilish ushbu maqolada obyekt sintaksema misolida yoritib berilgan.

Kalit so‘zlar: yadro bo‘lmagan tobe [ŃD] komponent, sintaksema, komponent tahlil, bevosita ishtirokchilarga ajratib tahlil qilish, obyekt sintaksema, to‘ldiruvchi

Sintaktik qurilmani komponentlarga ajratib tahlil qilish metodi ilk bora Noam Chomskiyning asarlarida keltirilgan. Ushbu tahlilda gapning ko‘roq tashqi qurilmasiga e‘tibor qaratiladi. Lekin Mukhin tomonidan ishlab chiqilgan sintaksem tahlilda gapning nafaqat tashqi balki ichki qurilmasiga ham ahamiyat beriladi. An‘anaviy sintaktik tahlildan farqli ravishda gapni sintaksemalarga ajratib tahlil qilishda gap bo‘laklari ega yoki kesin deyilmasdan, farqliroq atamalar bilan nomlanadi. Sintaksemalarga ajratib tahlil qilishda gap bo‘laklari NP1 - ega, NP2 - kesim, ŃD - yadro bo‘lmagan ikkinchi darajali bo‘lak kabi atamalar bilan nomlanadi. Matn tarkibidagi sintaktik birliklarni sintaksemalarga ajratib tahlil qilishda, avvalambor, kategorial differensial sintaktik-semantik belgilar aniqlanib, ular asosida ushbu birliklarning gap tarkibida tutgan o‘rniga ko‘ra nokategorial belgilari ochib beriladi. Sintaksemalarni aniqlashda tahlil qilinayotgan gapdan tashqari, boshqa gap tarkibidagi bir xil o‘rinda kelgan sintaktik birliklarning funksional maqomi ham qiyoslanadi. A.Muxin gap strukturasi komponentlar va sintaksemalarga ajratib tahlil qilish metodini ishlab chiqdi. Qayd etilgan lingvistik metod uning izdoshlari tomonidan til birliklarini sintaktik sathda differensial sintaktik hamda sintaktik-semantik belgilarini aniqlash va ularni qiyosiy funksional tadqiq etishda keng joriy etilmoqda [1, 113]. Prof. A.M.Muxinning fikricha: “Sintaksis ikki xil turga ajratiladi struktural va funksional. Gap strukturasi komponentlarga ajratib tahlil qilish, ya‘ni sintaktik birliklarning sintaktik aloqalarini aniqlash hamda ularning bir-biridan farqini ochib tahlil qilish struktural sintaksisning obyektini hisoblanadi. Gapdagi sintaktik birliklarni paradigmatic yo‘nalishda sintaksemalarga ajratib tahlil qilish funksional sintaksisning vazifasiga kiradi” [2, 154]. Komponent tahlil metodining yana bir nomi bevosita ishtirokchilarga ajratish metodi deb ataladi. Noam Chomsky "Syntactic Structures" (1957) kitobida an‘anaviy komponent tahlilini sintaktik strukturani tushunish uchun boshlang‘ich qadam deya hisoblaydi ammo uning o‘zi yetarli emasligini aytib o‘tadi. U komponentlarni ierarxik tizim va qat‘iy qoidalar (NP, VP) orqali ifodalashni taklif etib, komponent tahlil faqat yuzaki tuzilishni ko‘rsatishi va transformatsiya qoidalari zarurligini ta‘kidlaydi[3]. NP - *noun phrase*, VP - *verbal phraseni* anglatadi.

I give an apple

Ushbu gapda *I*- noun phrase



Give an apple - verbal phrase hisoblanadi. Ushbu gapni iyerarxik shaklda ya'ni bevosita ishtirokchilarga ajratib tahlil qilamiz.;

I - noun phrase, *give an apple* - verbal phrase

I - pronoun, *give* - verb *an apple* - noun phrase

An - determiner, *apple* - noun

Quyida xuddi shu gapni sintaksemalarga ajratib tahlil qilamiz. Bunda transformatsiya passivizatsiya usulidan foydalanib yuqoridagi gapni majhul nisbatga aylantirib olamiz.

I give an apple → $\frac{NP1}{SbAg} \cdot \frac{NP2}{PrAcDr} \cdot \frac{\bar{N}D}{Sbob}$

The apple is given by me → $\frac{NP1}{SbOb} \cdot \frac{NP2}{PrAcDr} \cdot \frac{\bar{N}D}{SbAg}$

Ushbu sintaktik tahlilda har bir sintaksemaning qanday sintaksema ekanligi izohlanadi. Misol uchun ushbu gapda substansional obyekt, possessual aksional direktiv, substansional agentiv sintaksemalar ishtirok etgan. Sintaksemalarga ajratib tahlil qilishda to'ldiruvchi bilan obyekt bir biridan farqli tushunchalar sifatida talqin qilinadi. **To'ldiruvchi (Дополнение)** — bu **sintaktik sath** birligi (gap bo'lagi)dir. U faqat gapning formal tarkibini, so'zlarning grammatik tobelanishi va kelishik shakllari (masalan, tushum yoki jo'nalish kelishigi) orqali yuzaga keladigan sintaktik pozitsiyani ifodalaydi. Lekin **obyekt** birligi **sintaksema** yoki **semantik rol** hisoblanadi va u grammatik shakldan qat'i nazar, tafakkurdagi va voqelikdagi harakat yo'naltirilgan real predmet yoki tushunchani bildiradi.[4]

Xulosa qilib aytganda Mukhin nazariyasidan kelib chiqadigan bo'lsak, to'ldiruvchi gapning faqat tashqi ya'ni grammatik tomoni, obyekt esa uning ichki mazmuni ya'ni semantikasidir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Мухин А. М. Функциональный синтаксис. – СПб., 1999. – 184 с.
2. Мухин А.М. Функциональный синтаксис. Функциональная лексикология. Функциональная морфология. – СПб., 2007. – 198 с
3. Chomsky, N. Syntactic Structures. 2nd Edition / N. Chomsky. – Berlin; New York: Mouton de Gruyter, 2002. – 118 p.
4. Doroshenkov, Valery & Amakhina, Svetlana & Sinitsyna, Yulia. (2025). Works of Anatoliy M. Mukhin: Two Laws of Language Functioning. RUDN Journal of Language Studies, Semiotics and Semantics. 16. 175-189. 10.22363/2313-2299-2025-16-1-175-189.